

**KARMANA SHAHRI TARIXIY YODGORLIKLARINING TARIXI VA QAYTA
TIKLANISHI****Rustamova Dilafro'z Azamatovna***Navoiy davlat pedagogika instituti PHD doktranti*

Annotatsiya: *Maqolada Navoiy viloyati Karmana tumanidagi tarixiy obidalar va turizmni rivojlantirish ishlari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

Kalit so'zlar: *turizm, rivojlantirish, amaliy, asoslar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat, xalq, xo'jalik, tarmoqlar, ta'sir doirasi, buyuk ipak yo'li.*

Turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli soha hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki turizmga investitsiya kiritish uchun avvalambor bu sohani rivojlanishi uchun ma'lum bir darajada shart-sharoitlar kerak bo'ladi. Tangani ikki tomoni bo'lgani kabi bu vaziyatning ham yaxshi va yomon tomonlari mavjud. Chunki turizm ham mavsumiy bo'lishi hech birimizga sir emas.

Ta'kidlash kerakki, yaqin yillardagi pandemiya sharoitida turizm infratuzilmasini tashkil qiluvchi tarmoqlarni inqirozdan saqlab qolish borasida ko'plab mualliflar o'rtasida yagona tushuncha mavjud emas. Fikrimizcha bu borada hali olib borilishi kerak bo'lgan tadqiqotlarning ko'lami keng bo'lib, turizm tarmoqlarini rivojlanishini ta'minlashimizda xalqaro tajribalami ham hisobga olishimiz lozim. Har bir davlatning rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, albatta turizm bilan bog'liq bo'ladi. Har bir davlat o'z yurtini butun dunyoga tanitish uchun ham o'zining turizm sohasini yetarli ehtiyojlar bilan ta'minlaydi.

Biz bu maqolani to'liq yoritib berish jarayonida turizmning qadimgi davrlardan buyon to hozirgacha rivojlanib kelayotganiga amin bo'ldik. Shunday ekan, biz qanday sohaga qiziqishimizdan qat'iy nazar turizm sohasi bilan o'zimizning hayotiy faoliyatimizni bog'lashimiz zarur. Oxirgi 3-4 yildan buyon turizm sohasiga qaratilayotgan e'tibor juda ham katta. Bu sohaga kirib kelgan inson hech qachon unit ark eta olmaydi.

Quyida Navoiy viloyati Karmana tumanidagi tarixiy obidalar haqida batafsil yoritib beramiz.

Qosim-Shayx majmuasi

Qosim Shayx me'moriy majmuasi XVI asrning nodir obidasi bo'lib, Shayboniylar sulolasidan bo'lgan Buxoro hukmdori Abdullaxon II tomonidan o'zining piri, Yassaviya tariqatining piri komili Qosim Shayxga atab qurdirilgan. Qosim Shayx asli qadim Karmana tuprog'ida, Zarafshon daryosi qirg'og'iga yaqin Marjonxotun qishlog'ida 1500-(bazi manbalarda 1503-y) yilda tavallud topgan.

Qosim Shayx dastlab Karmanada, keyin esa Buxoroga borib, Kubroviya (xo'jagon) tariqatlaridan biri Shayx Abdullatifdan ta'lim oladi. Shuningdek, Qosim Shayx ilm izlab, Samarqandda hazrati Shayx Mavlono Vali huzuriga boradi va u yerda Kubroviya (xo'jagon), Qodiriya, Yassaviya, Naqshbandiya shayxlari vakillaridan ta'lim va pirlilik ijozatini oladi. Qosim Shayx XVI asrda Mavorounnahrda yetakchi ruhiy rahnomo, diniy arbob va Xo'ja Ahmad Yassaviy tariqatining nomdor davomchisi edi.

Mavlono Orif Deggaroniy

Mavlono Orif Deggaroniy, tarixiy manbalarning guvohligiga qaraganda, taxminan 1313-yilda Hazora qishlog'i Deggaron dahasida (hozirgi Karmana tumanining Hazora qishlog'i hududida) tug'ilgan. Asl kasbi do'kondor bo'lib, bo'z to'qish bilan shug'ullangan. Mavlono Orif Deggaron dahasida tug'ilganliklari bois Deggaroniy nomi qo'shib aytilgan.

Mavlono Orif odamiylik qadriyatlarini har narsadan ustun qo'ygan. Baxt-saodatga erishish faqat mehnat tufayli amalga oshishini alohida uqtirgan. "Qo'ling mehnatda bo'lganda, dilda ne bo'lmoq kerak" degan savolga hamisha "Diling Ollohni zikrlashda bo'lsin" degan naqlni muntazam eslatib turgan. Mavlono Orif Deggaroniy va Bahouddin Naqshbandiylar dunyoqarashi botinan (ichdan) xudo bilan, zoxiram (tashqaridan) odamlar bilan bo'lish kerakligiga asoslangan. Ular Olloh rahmatiga yetgan kishilardir. Ularda valiylik sifatleri mujassam. Deggaroniy hazrati Bahouddin Naqshband bilan hamnafas, tengdosh va do'st bo'lib, u kishi taxminan 1313-1380-yillar oralig'ida Deggaron dahasida yashab o'tgan.

Raboti Malik va Sardoba karvonsaroyi

Raboti Malik karvonsaroyi va Sardoba XI asrning 70-yillarida Qoraxoniylardan bo'lmish Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohim (1068-1080-y.) tomonidan qurilgan bo'lib, XII asrning birinchi choragida yana shu Qoraxoniylardan bo'lmish Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (1102-1130-y.) tomonidan ta'mirlangan.

Raboti Malik karvonsaroyi 100×100 m maydonni egallagan bo'lib, mustahkam devorlar bilan o'ralgan va ikki qismga bo'lingan. Karvonsaroy o'zining dastlabki vazifasi e'tibori bilan XVIII asrgacha xizmat qilib kelgan. Unda Amir Temur va uning avlodlari, buxoroda hukmronlik qilgan sulolalarning xonlari, elchilar, savdo karvonlari va sayyohlar qo'nib o'tgan. Hofizi Abro'ning ma'lumotiga ko'ra, Ulug'bek 1420-yilda ushbu mintaqalarda to'xtab, qirq kun ov qilgan.

Mirzachorbog' xonqarorgohi

Buxoroning so'nggi amiri Sayid Olimxonning otasi Sayid Abdulahadxon 1894-yildan vafotiga qadar amirlikni Karmanadan turib boshqargani haqida ma'lumotlar bor. Shu davrda u Karmana atrofida Charmgarchorbog', Gulchorbog', Bog'i olchin, Jarchorbog' kabi bir nechta chorbog'lar qurdirgan. Shulardan bugungacha faqat bittasi saqlanib qolgan. Bu - Karmana tumanining Ko'hnaqo'rg'on mahallasida, Zarafshon daryosiga yaqin hududda joylashgan Mirzachorbog'. Mazkur obida Sayid Abdulahadxonning yozgi qarorgohi hisoblangan. 1900-1905-yillarda barpo etilgan, betakror me'moriy uslubga ega ushbu saroy nafaqat tarixiyli, balki naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi san'atining o'sha davrga xos namunalari aks etgani bilan qimmatlidir. Mirzachorbog'ning qurilishida me'mor Abdurahim Turdimurod o'g'li G'azg'oniy bosh-qosh bo'lgan va o'sha davrning nomdor ganchkor ustasi Shirin Murodov ham ishtirok etgan.

Hozirgi kunda bu tarixiy obidalar turistik qadamjolarga aylantirilgan. O'z rivoji uchun sarmoya kiritgan har bir davlat kelgusi yillarda rivojlangan davlatlar orasida eng yuqori darajani egallaydi. Biz ham o'z ajdodlarimizdan qolgan merosni butun dunyoga tanitishimiz lozim. Bugungi kunda hukumat tomonidan turizm sohasini modernizatsiya qilish, davlatda transport va mehmonxona infrastrukturasi yaxshilash, hamda turizm normativ-huquqiy bazani mukammallashtirish sohalarida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] - Международный туризм сократился в 2020 году до уровня 1990 год.
<https://www.interfax.ru>
- [2] - Erkayeva Barno Abdurahimovna " O'ZBEKISTONDA TARIXIY-MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY JIHATLARI ".
- [3] - <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Turizm>
- [4] - Richards . G. "Cultural tourism in Europe. CABI, Wallingford. (1996) [1,c.45]
- [5] - Колотова Е. В. Рекреационное ресурсоведение: Учеб. Пособие.- М.:PMATC. [1,C.92-93].
- [6] - Ro'ziyev Sh. " O'zbekistonda tarixiy- madaniy turizmni rivojlan tirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi". <https://cyberleninka.ru/>
- [7] - "O'zbekiston turizm salohiyati" <http://www.uzbekistan-geneva.ch/turizm-191.html>